

MUHAMMAD YUSUF TARJIMALARIDA SINONIMLARNING BERILISHI (Qoraqalpoq tili misolida)

*M.Yeshboyeva,
NDPI 1-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qardosh xalqlar orasidagi tarjima hamda Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga o‘girilgan she‘rlarida qo‘llanilgan sinonimlar haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, tarjimon, tarjima jarayoni, qardosh xalq, asliyat, sinonim, sinonimik qator.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о переводе между братскими народами и синонимах, используемых в стихотворениях Мухаммада Юсуфа, переведенных на каракалпакский язык.

Ключевые слова: художественный перевод, переводчик, переводческий процесс, братский народ, оригинальность, синоним, синонимическая линия.

Abstract: This article provides information about the translation between the brotherly nations and the synonyms used in Muhammad Yusuf's poems translated into the Karakalpak language.

Key words: artistic translation, translator, translation process, brotherly people, originality, synonym, synonymous line.

Har bir xalqning rivojlanishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Bu orqali ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish ham o‘z-o‘zidan ortib boraveradi. Badiiy adabiyotni esa tarjimalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. “Bizning mamlakatimizda badiiy tarjima umumdavlat ishi hisoblanadi. Umuman, xalq maorifi, madaniyati, ma‘rifat ravnaqidan davlat qanchalik manfaatdor bo‘lsa, badiiy adabiyot va tarjima ham shunchalik ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik ishdir”, – deb yozadi tarjimashunos olim Salomov [8:5]. Demak, tarjima qilish, badiiy tarjimaning juda muhim ekanligi kecha yoki bugun boshlangan ish emas. “Professor G‘aybulla Salomovning “Til va tarjima” asari (T., 1966) O‘zbekistonda tarjima ilmi va amaliyoti bo‘yicha to‘plangan nazariy ma‘lumotlarning sintezi o‘laroq yuzaga keldi” [7:127]. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tarjima sohasi yana ham rivojlandi. O‘zbek tilidan chet tillariga, chet tillaridan o‘zbek tiliga asarlar tarjima qilindi va kitobxonlarga havola qilindi. Mamlakatlar orasidagi badiiy aloqa ham tobora yuksaldi. Tarjimalar nafaqat xalqlar orasida, balki xalq ichida bir tan-u bir jon bo‘lib yashayotgan millatlar orasidagi asarlarda ham qilinganligi sir emas. Jumladan, o‘zbek xalqining sevimli shoiri, kam umr ko‘rgan-u, lekin o‘zidan buyuk bir meros qoldirgan, ozgina vaqt davomida barchaning ko‘ngliga kirib ulgurgan Muhammad Yusuf she‘rlari qardosh tilimiz bo‘lmish qoraqalpoq tiliga ham o‘girilgan. Shu orqali qardosh xalqimiz vakillari Muhammad Yusufning she‘rlarini o‘z ona tillarida o‘qish baxtiga muyassar bo‘lganlar.

Tarjima jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, “Asarni bir tildan ikkinchisiga muqobil bir maqomda o‘tkazish tarjimondan chuqur bilim, katta mahorat, og‘ir mehnat talab qiladi”, – deya ta’kidlaydi tarjimashunos olim Salomov [8:116]. Qardosh xalq vakillaridan mehnat qilib, bor iqtidorini namoyon qilgan tarjimonlar deya Bazarbay Seytayeov, Altingul O‘teniyazova, Kenesbay Karimovlarni faxr ila ayta olamiz. Ushbu maqolamizda esa Bazarbay Seytayeovning qilgan tarjimalarini, unda qo‘llanilgan sinonimlarni tahlil qilamiz.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she’rida shunday misralar bor:

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga [2:3]

Tarjimada:

Shadligimsan, gumsha jarip
Urqan atqan izimde.

O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida (keyingi o‘rinlarda O‘TSIL) “gul” va “chechak” so‘zlari berilgan [1:81]. Qaraqalpaq tiliniñ sinonimlar dizbegida esa bu so‘zlar berilmagan, ammo Qaraqalpaq tiliniñ túsindirme sózligi (keying o‘rinlarda QTTS) “gumsha” so‘zi “Gúl ashılıwdan burıngı burtigi” ma’nosi bildirgan [6:70]. “Urqan” so‘zi esa “ Palız hám hár qıylı ósimliklerdiñ gúllew aldında jańa shıgıp kiyatırǵan kishkentay sabaǵı” ma’nosini anglatgan. [6:274] Bunga ko‘ra tarjimadagi sinonimik qator buzilgan hamda ma’nosida ham o‘zgarish bor. Sinonimlar o‘rniga “Endigina gullay deb turgan g‘unchalar” nazarda tutilgan. Asliyatda shodon kunim sen gul otyapsan , chechak otyapsan deya vataniga shoir murojaat qilayotgan bo‘lsa, tarjimada vatanini shodligimsan deya alqayapti.

“Biz baxtli bo‘lamiz” she’rida keltirilgan sinonimlar:

Faqat,
Yig‘lamagin,
Gunohim ne deb,
Aybing –
Onang seni
Chiroyli tuqqan!.. [4:19]

O‘TSILda “ayb, gunoh” so‘zlari sinonimik qatorda keltirilgan [1:17]. Tarjimada:

Tek te
Jilamaǵıl
Gunayım ne dep,
Ayıbın –
Anań seni

Shiraylı tuwǵan. [3:3-4]

Qaraqalpaq tili sinonimleriniń qısqasha sózligida (keyingi o‘rinlarda QTSQS) ham “guna, ayıp” so‘zlari berilgan [5:32]. Ushbu bandda tarjimon so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llab, asliyatda berilgan hissiylikni tarjimada ham to‘liq ta‘minlay olgan deya yuqori baho bersak arziydi.

Muhammad Yusuf she‘rlari bir-biridan ajoyib, mutolaa qilganimizda to‘g‘ri ko‘nglimizga kirib boradi. So‘zlardan ham mohirona tarzdan foydalanganligini ham ko‘rishimiz mumkin. “Ko‘hna quduq” dostonining bir necha o‘rinlarida ishlatilgan sinonimlarni tarjimasi bilan solishtiramiz. Asliyatda:

Ma’yus kunim ko‘zim tushsa
Kuyar osmon, tushunmaysan.
Meni samo tushungaydir,
Sen ey inson, tushunmaysan. [4:115]

Osmon, samo so‘zlari sinonim so‘zlar hisoblanadi [1:159]. Tarjimada:

Ǵamgun kúnim kózim tússe,
Kúyer aspan túsınbeysen.
Meni álem túsinedi
Ey sen, insan, túsınbeysen. [3:42]

Qaraqalpaq tili sinonimleriniń qısqasha sózligida “aspan” va “álem” so‘zlari sinonim tarzda berilgan [5:14]. Bundan ko‘rinib turibdiki, mutarjim nafaqat o‘z tilini, balki asliyat tilini ham chuqur bilgan, shu bilan birgalikda, qobilyatli tarjimon bo‘lgan. Shu dostonning yana bir o‘rnida kelgan sinonimlarni tahlilga tortsak. Asliyatda:

O‘krab yig‘lagandi,
Ho‘ngrab yig‘lagandi,
Ko‘ziga tor bo‘lib yorug‘ jahoni. [4:119]

Tarjimada:

Ókirip jılagan edi
Eńirep jılagan edi,
Kózine tar kórip jaqtı jáhándi. [3:45]

Asliyatda “yig‘lamoq” fe‘lining darajasiga ko‘ra ishlatilgan, “o‘kirib yig‘lamoq”dan ko‘ra “ho‘ngrab yig‘lamoq“ fe‘li darajasi yuqori. Shoir bu orqali she‘rning ma‘nosini yana ham kuchaytirgan. Tarjimon ham she‘rdagi badiiylikni bera olgan. Yuqoridagi fe‘lining aynan ma‘nosiga to‘g‘ri keluvchi so‘zlarni topib qo‘llay olgan. Bu tarjimalar ustida mutarjim uzoqishlagani, ancha mehnat qilgani ko‘rinib turibdi.

Ba’zi bir tarjimalarda esa kamchiliklar ham mavjud. Xususan, “Osmonning oxiri” dostonida quyidagi misralar keltirilgan:

Uyqu ham
Nasiyaga berilgan umr
Uyqung ortgan sayin
Qarzing ham ortar. [4:13].

Seytayev tarjimasida:

Uyqi hám
Násilge berilgen ómir
Uyqín artqan sayin
Qarızın da artar. [3:17]

Asliyatda “nasiya” va “qarz” so‘zlari sinonimik qatori ishlatilgan. Ammo tarjimada “nasiya” so‘zining o‘rniga “násil” so‘zi noto‘g‘ri qo‘llanilgan. QTTSda bu so‘z “Tegi, hasli, tuqımı, negizi, tykari, tórkini, urım putađı” deya izohlangan [6:231]. Shunga ko‘ra sinonimlar ishlatilmagan, asliyatdagi kabi tarjima qilinmagan desak xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mutarjim bilim va mahoratini to‘liq ishga solgan holda tarjima qiladigan bo‘lsa, xalq uni uzoq yillar davomida hech ham zerikmasdan mutolaa qiladi. Xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham ko‘p yillar davom etadi. Shu bois tarjima ishlariga befarq bo‘lmasdan o‘girmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A., O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, T.: O‘qituvchi, 1974. – 308 s.
2. Muhammad Yusuf, Biz baxtli bo‘lamiz, T.: Nihol, 2008. – 192 s.
3. Muhammad Yusuf, Biz baxitli bolamiz (B.Seytayev tarjimasida), N.: Qaraqalpaqstan, 2004. – 48 s.
4. Muhammad Yusuf, Saylanma, T.: Sharq, 2019. – 286 s.
5. Qalenderov M., Qaraqalpaq tili sinonimlarining qisqasha so‘zligi, N.: Qaraqalpaqstan, 1990. – 228 s.
6. Qaraqalpaq tilinin tusindirme sózligi, III-V-VII tomlar, N.: 20 Qaraqalpaqstan, 2023. – 401 s.
7. “Til, ta’lim, tarjima” jurnali 3-son, T.:2021. S. 127-130.
8. G‘.Salomov, Tarjima tashvishlari, T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 192 s.